

O'SMIRLARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ummatqulova Nigora Umarqulovna

Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.02.1.071>

Annotatsiya: Ijodiy fikrlash – bu psixologik jarayon va psixologik faoliyat bo'lib, uning mohiyati asosiy fazilatlar – tezkorlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik bilan ajralib turadigan tasvirlar, tushunchalar va aqliy harakatlarni shakllantirish orqali atrofdagi dunyoni aks ettirish va o'zgartirishning o'ziga xosligidadir. Aniqlik – ular bir vaqtning o'zida o'r ganilayotgan jarayon uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada o'smirlilik davrida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'smirlar, tafakkur, rivojlanish, ijodiy fikrlash, fikrlash tezligi, ijodkorlik, baxs munozaralar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Умматкулова Нигора Умаркуловна

Стажер-преподаватель Гулистанского государственного педагогического института

Аннотация: Творческое мышление – это психологический процесс и психологическая деятельность, суть которой заключается в отображении и изменении окружающего мира путем формирования образов, понятий и мыслительных действий, характеризующихся основными качествами – быстротой, гибкостью, оригинальностью. Ясность – они одновременно служат критерием изучаемого процесса. Общение и отношения между людьми в общественной жизни, образовательном процессе и производстве проявляются с помощью мышления. В данной статье говорится о педагогических и психологических особенностях развития мышления учащихся в подростковом возрасте.

Ключевые слова: Подростки, мышление, развитие, творческое мышление, скорость мышления, креативность, дискуссия.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CREATIVE THINKING IN TEENAGERS

Ummatqulova Nigora Umarqulovna

Intern-teacher of Gulistan State Pedagogical Institute

Annotation: Creative thinking is a psychological process and psychological activity, the essence of which is to reflect and change the surrounding world by forming images, concepts and mental actions characterized by the main qualities - quickness, flexibility, originality. Clarity - they simultaneously serve as a criterion for the process being studied. Communication and relations between people in social life, educational process and production are manifested with the help of thinking. This article talks about the pedagogical and psychological features of the development of students' thinking during adolescence.

Key words: Adolescents, thinking, development, creative thinking, thinking speed, creativity, discussion.

ta'lism tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi yosh avlodning yutug' idir. Har qanday mamlakatning ertangi taraqqiyotini uning kuchli bilim va salohiyatga ega, zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan yoshlari belgilab beradi. Ularni global rivojlanishning barcha sohalari va tarmoqlariga hayotbaxsh kuch bag'ishlovchi shiddatli lokomativ desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bugun dunyo aholisining 30 foizdan ko'progini yoshlari tashkil etmoqda. Ushbu foizlarning ko'p qismini o'smirlar tashkil qiladi. O'smirlar haqida yetaricha ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotta qo'llash yosh avlod tarbiyasiga berilgan e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi. O'smirlilik davri 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. „Endi o'smir bola emas biroq kata ham emas“ ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim harakterini bildiradi. O'smirlilik - bolalikdan kattalikga o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish bosqichi bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taaluqli chigal vaziyatlarning paydo bolishi bilan ham harakterlanadi. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar.

ADABIYOTLAR TAHЛИI VA METODLAR

O'smirlik davri „o'tish davri”, „krizis davr”, „qiyn davr” kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlar bilan harakterlanadi. O'smirlik davrida ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy hususiyatlar xosdir. O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hislat - voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. O'smirlik yoshiga hos bo'lgan psixologik hususiyatlarini o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z- o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti- harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliv psixik funksiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. O'z-o'zini anglash hissining tarkib topishi, o'ziga nisbatan go'yo alohida mustaqil shaxs sifatidagi munosabatning vujudga kelishi bu davrdagi har ikki jinsdagisi va istagan temperament tipidagi o'smirlar uchun muhim xususiyatlardir.

Psixolog L.S.Vigotskiy o'smir yoshi psixologiyasini „psixik rivojlanishdagi inqiroz” deb nomlagan. O'smirlik davridagi inqiroz-o'smir kechinmalari, uning strukturasi, mazmunining qat'iy o'zgarishi, buzilishidir. U 13 yoshni inqirozni sindiradigan nuqtasi deb atagan. Inqirozdan keyingi davrlar ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan subektiv yanada qiyniroq deb ataladigan yangi psixologik tuzilmalar shakllanadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalar, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Vigotskiy psixik rivojlanishdagi inqiroz bilan cheklanib qolmasdan, o'smirlik davridagi qiziqishlarning o'zgarishiga bog'liq ravishda ikki ya'ni salbiy va ijobjiy fazani ajratib ko'rsatgan. Salbiy faza ilgarigi qiziqishlarning so'nishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ijobjiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. O'smirda boshqalarning va o'zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo'ladi.

NATIJALAR.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; ob'yekтив voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda

voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Ijtimoiy hayotda, ta’lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o‘zini o‘zi tanqid, baholash, tekshirish, o‘zini o‘zi tekshirish, nazorat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat Tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtiolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo‘lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o‘rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko‘p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda. O‘mirlik yoshing o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlagan tadqiqotlarga nazar solsak, unda turli xil nazariyalar farazlar va fundamentlar izlanishlar borligining guvohi bo‘lamiz. Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kиргани endi xarbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr ilg‘or texnologiyalar xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rganish masalasi har qachongidan dolzarbdir. Axborot olamidagi ustunlik ko‘p nasani hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma’naviy, kerak bo‘lsa, muxim siyosiy axamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish masalasi har qachongidan dolzarbligidir. Axborot olamidagi ustunlik ko‘p narsalarni hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikriga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash masalasini nafaqat manaviy, kerak bo‘lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shaxsdagi mustaqil tafakkur uning aqliy qobiliyati bo‘lib, shaxs o‘z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo‘yadi. Bu tafakkur turida shaxsda amaliy va ilmiy faraz qila olish, natijani ko‘z oldiga keltira olish, qo‘yilgan vazifani esa o‘zi, boshqalarning ko‘magisiz, ko‘rsatmasiz hal qilishi kuzatiladi. Muamoni hal qilish yo‘lida esa turli yo‘l usul va vositalarni o‘zi topadi. Yosh davrlari nuqtai nazaridan tafakkur xususiyatlarini tushuntirishda turlicha fikrlar mavjuddir. Ayni o‘siprinlik davrida tafakkur tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyatlarga ega bo‘lib boradi, lekin fikr yuritishda obyektiv va subyektiv kamchiliklar uchraydi. Bu yoshda gohida o‘z fikriga ega emaslik, usul va vositalarning o‘zi tomonidan tanlamaslik va qarorlar qabul qilishda boshqalar fikriga ergashish tushunilar ekan.

O‘quvchilarda mustaqil va ijodiy tafakkurni shaklantirish uchun ularning nutqini rivojlantirish, o‘z fikrlarni ximoya qila olishlariga, tanqid qilish va baxslashishga o‘rgatish kerak.

O‘quvchilardagi ijodiy tafakkur xususiyatlarni o‘rgatish uchun qator psixologik usullar mavjud bo‘lib, ijodiy tafakkurning tezligi, egiluvchanligini, orginalligi kabi xususiyatlarni aniqlashda “Torrens aylanalari” testi ayniqsa mashxurdir. Bu testni o‘tkazish uchun respondentlarga aylanalar chizilgan A4 formatdagi qog‘oz varaqlar va qalamlar tarqaladi hamda quyidagicha ko‘rsatma beriladi: ‘Qog‘ozga tartibsiz ravishda 20 ta aylanalar chizilgan. Sizni vazifangiz, aylana shaklidan asos ravishda foydalanib iloji boricha ko‘proq rasm chizishdan iborat. Bunda chizilgan rasmingizning tagiga nomini yozishni unutmang. Topshiriqni bajarish uchun sizga 10 daqiqa vaqt ajratiladi’. O‘quvchilar chizilgan rasmlar divirgent tafakkurning egiluvchanligi, tezligi, orginalligi kabi sifatlar bo‘yicha tasniflanadi. Tafakkur tezligi o‘quvchilar chizgan rasmlarning soni, tafakkur egiluchanligi har xil sinflarga kiruvchi predmetlarni chizilganligi, tafakkur orginalligi esa boshqalarnikiga o‘xshamagan, hech kim chizmagan rasmlar soni bilan belgilanadi. Tafakkur tezligi, egiluvchanligi va orginalligi yuzasidan olingan baholarning o‘rtacha arfimetik qiymati keltirib chiqariladi. O‘g‘il bolalarda ko‘proq texnikaga oid buyum va jihozlarni, jumladan, transport vositalarini, turli yo‘l harakati belgilarini, sport anjomlari shuningdek, kundalik xayotda uchraydigan narsalarni chizish kuzatildi. Tafakkur tezligining sifati yuqori darajadagi rasmlarda bolalarning ko‘p narsalar chizilganligini kuzatdik. Tafakkur egiluvchanligi bo‘yicha rasmlardan 5-7 ta predmet aks ettirilganligini qayd etish mumkun. Bundan ko‘rinadiki, o‘quvchilarda tafakkur egiluvchanligi uning tezligiga nisbatan ancha marta kam ekan. Tafakkur yaxshi rivojlangan o‘quvchilarda tafakkur egiluvchanligi ham yuqori bo‘lishi mazkur metodika

natijalarida ham aks etadi. Shunga qaramay, ayrim o'quvchilarning aylana shaklini birlashtirib gantel, svitafor, yo'l belgilarini chizilganligini orginallik sifati deb qabul qilish mumkun. O'quvchi qizlarda tafakkur tezligi birmuncha yuqori ekanligini ular chizgan rasmlardagi predmetlar soni ko'pligidan ko'rish mumkun. Ular chizgan rasmlarda mevalar, gullar, uy jihozlari, kulcha, gilos, soat, turli yo'l xarakati belilari aks etirilgan. Natijalardan ko'rindan, tafakkur egiluvchanligi bo'yicha ko'rsatkichlar ham qizlardan yuqori. Rasmlardagi orginallik o'quvchilarning sharlar bog'lami, svitafor, ko'zoynak, qaychi kabilarni chizganligida ko'rindi. Natjalarga ko'ra, o'g'il bolalarda tafakkur tezligini yuqori, tafakkur originalligi esa xar diom ham kuzatilmasligi ayon bo'ladi. Qizlarda esa vazifalar soni va berilgan vaqt miqdori ortishi bilan tafakkur tezligi ham yuqori bo'lishi kuzatiladi. Vazifalar soni qancha ko'p bo'lsa, qizlarda tafakkur originalligi ham bir oz ortar ekan. Qizlarda ham xuddi bolalar kabi tafakkur tezligi tafakkur originalligiga nisbatan ildamligi ko'rindi. Umuman qaraganda tafakkur tezligi darajasi o'g'il bolalarda yuqoriroq, tafakkur egiluvchanligi jihatidan esa qizlarning ko'rsatkichi ustun ekanligi aniqlandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlarda mustaqil ijodiy fikrni rivojlantirish uchun bir qator tashkiliy chora tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu borada guruhning faoliyatini mazmunli tashkil etish, ya'ni munozara, diolog, o'yin metodlaridan keng va o'rinnli foydalanish, o'quvchilar uchun o'z fikrlarini erkin bayon qilish sharoitini yaratish, turli psixologik treninglar, davra suxbatlarini tashkil etish, bunday tashkilotiga ko'proq ijodiy topshiriqlarni, muammoli vaziyatlarni kiritish kerakki, o'quvchilarda baxs munozara orqali o'z fikrlarini, muammo yuzasidan o'z nuqtai nazarlarini erkin bayon etish malakasini rivojlantirishga erishish mumkin. Fan o'qituvchilaridan ham o'z navbatida noan'anaviy dars usullari, o'qitishning yangi entiraktiv metodlaridan foydalanish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Nishanova Z.T. Mustaqil fikrlashni o'rgatish bo'yicha trening\Xalq ta'limi 2000,16 b.

Foziyev E.F Tafakkur psixologiyasi. –Т.: О'qituvchi -1990. -183 b.

Toshpo'latova, N. (2022). ЎСМИРЛИК ДАВРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛГАН ҲОЛДА ЁНДОШУВНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(3).

O'QUVCHILAR TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O'RNI.

G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.